

“NKMK” AJga ishga qabul qilish TARTIBI

1-BOSQICH

TANLOV O'TKAZILISHI TO'G'RISIDA E'LON QILISH




- Tashqi tanlov uchun vakant ish o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlar “NKMK” AJning mehnat.ngmk.uz, www.ngmk.uz rasmiy veb-sayti hamda telegram, facebook, instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifalarida joylashtiriladi.
- Ichki tanlov uchun vakant ish o'rinlar to'g'risidagi ma'lumotlar “NKMK” Ajning ichkitanlov.ngmk.uz hamda jamiyat tarkibiy bo'linmalari binosining peshlavhasiga joylashtiriladi.
- Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa nomzodning malakasiga qo'yiladigan talablar, lavozim (kasb) majburiyatlari, ish sharoitlari ko'rsatiladi.
- Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 15 ish (tashqi tanlov), 7 ish (ichki tanlov) kunni tashkil qiladi.

- Nomzodlarga teng sharoitlarni ta'minlash va korrupsiyaviy omillarni oldini olish uchun tanlovlar ochiqlik tamoyili asosida o'tkaziladi.

2-BOSQICH

NOMZODLARNI JAMLASH VA MALAKAGA OID TALABLARGA MUVOFIQLIGINI O'RGANISH



- Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar tomonidan e'londa so'ralgan hujjatlar taqdim etiladi.
- Hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran, Tanlov komissiyasiga hujjat taqdim etgan barcha nomzodlarning ro'yxati shakllantiriladi va ularning malaka talablariga mosligi o'rganib chiqiladi.
- Tanlov komissiya tomonidan o'rganish natijalariga ko'ra, malaka talablariga muvofiq nomzodlar tanlov ishtirokchilari hisoblanadi.
- Malaka talablariga muvofiq bo'lmagan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritilmaydi va bu to'g'risida Tanlov komissiyasi tomonidan nomzodga xabar beriladi.
- Tanlov komissiyasi tomonidan tanlovda qatnashadigan nomzodlar ro'yxati tasdiqlanadi va sinov o'tkaziladigan kun belgilanadi.

TANLOV 4 ta bosqichda o'tkaziladi

3-BOSQICH

NOMZODLARNI SINOVDAN O'TKAZISH TARTIBI



Tashqi tanlov uchun

- I bosqich – nomzodlarni testdan o'tkazish; (Idoraviy harbiylashgan qo'riqlash xizmatlari uchun amaliy mashg'ulot)
- II bosqich – nomzodlarni ehtiyoj bo'lgan taqdirda amaliy sinovlardan o'tkazish (Idoraviy harbiylashgan qo'riqlash xizmatlari uchun test o'tkazish);
- III bosqich – nomzodlar bilan suhbat o'tkazish.

Ichki tanlov uchun

- Nomzodlar bilan suhbat o'tkazish.



Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish maqsadida, tanlov jarayoni video tasvirga olinadi.

4-BOSQICH

TANLOVNI YAKUNLASH



- Tashqi tanlov tadbirlarining umumiy natijasi 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda, tanlov tadbirlari test va suhbat shaklida o'tkazilganda, test savollari 25 tani va har bir to'g'ri javob 2 ballni tashkil qiladi, suhbat savollari 10 tani va har bir to'g'ri va aniq javob uchun 5 ballni tashkil qiladi.
- Tanlov test, amaliy mashg'ulot va suhbat sinov tadbirlarining barcha shakllarida o'tkazilgan taqdirda umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.
- Bunda, test sinovlariga 30 ball (15 ta savol har bir to'g'ri javob 2 ball), amaliy mashg'ulotlar uchun 30 ball va suhbat shakliga 40 ball (8 ta savol har bir to'g'ri va aniq javob uchun 5 ball) beriladi.
- Tanlov natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi hisoblanadi.
- Tanlov g'olibi o'z arizasiga ko'ra mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, Tanlov komissiyasi qaroriga asosan eng yuqori balldan keyingi o'rinni egallagan nomzod tanlov g'olibi deb topiladi.
- Agar nomzodlar bir xil baho olgan bo'lsa, g'olib tanlov

komissiyasi a'zolarining ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

- Ichki tanlovning umumiy natijasi 50 ballik (5 ta savol 10 balldan) tizimda baholanadi.
- 30 balldan kam to'plagan nomzod suhbatdan o'tmagan hisoblanadi.

NOMZODLARNI TANLASH



- Tanlov natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi hisoblanadi va ishga qabul qilinadi.
- Tanlov komissiyasining qaroriga rozi bo'lmagan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran besh ish kuni muddatda Apellyatsiya komissiyasiga tanlov natijalarini ko'rib chiqish uchun yozma yoki elektron ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.
- Nomzodlar Tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda, Tanlov komissiyasi bayonining e'lon qilingan kundan e'tiboran bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha Tanlov komissiyasi xulosasi ustidan yuqori turuvchi organiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

NO CORRUPTION BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

Korrupsiya bilan bog'liq holatlarga duch kelsangiz 79-227-72-22 raqamiga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.